

2019 yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi

2019 yilning oktabrida o'rtacha iste'mol narxlari darajasining oy davomidagi o'sish sur'ati 1,5 %ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlari indeksi, %



Umumiy hisobda 2019 yilning yanvar-oktabr oylari davomida iste'mol bozoridagi tovarlar va xizmatlar narxi 11,4 %ga qimmatlashdi.

2018 yilning oktabr oyiga nisbatan respublika iste'mol sektoridagi o'rtacha narxlar darajasi 16,3 %ga oshgan.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning oktabrida tovar va xizmatlar narxlari oy davomida o'rtacha 1,3 %ga, 2017 yilning dekabr oyiga nisbatan 9,5 %ga, 2017 yilning oktabriga nisbatan esa 16,3 %ga qimmatlashgan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



O'rtacha oylik narx indekslari o'sish sur'atining¹ hisoblanish tartibiga ko'ra, 2019 yilning yanvar-oktabr oylari davomidagi iste'mol narxlari indeksi 1,1 %ni, 2018 yilning yanvar-oktabrida esa 0,9 %ni tashkil etgan. Shunday qilib, oktabr oyi davomida umumiy iste'mol narxlari indeksi joriy yilning yanvar-oktabr oylaridagi o'rtacha oylik o'sish sur'ati ko'rsatkichidan 0,4 darajaga yuqori bo'ldi.

2019 yilning yanvar-oktabr oylari davomidagi narxlarning eng yuqori o'sishi va pasayishi avgust (o'sish sur'ati 2,9 %) hamda iyun (pasayish darajasi 0,5 %) oylariga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning mos davridagi qisqa davrli oylik iste'mol narxlari indeksi dinamikasi tahlili natijalariga ko'ra, umumiy ko'rsatkichning eng yuqori o'sishi yanvar oyida (2,7 %), sezilarli darajada pasayishi esa iyun oyida (0,4 %) qayd etilgan.


O'tgan oyga nisbatan avgust oyidagi umumiy iste'mol narxlari indeksi nafaqat joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomidagi, balki 2018 yilning yanvaridan 2019 yilning oktabr oyigacha bo'lgan davrdagi eng yuqori ko'rsatkich bo'lib sanaladi.

O'rtacha oylik o'sish sur'ati o'tgan oyga nisbatan har bir o'rganilayotgan oyidagi narx indekslari o'sishining o'rtacha geometrik ko'rsatkichi sifatida aniqlanadi.

2019 va 2018 yillarning o'n oyi davomidagi qisqa davrli oylik umumiy iste'mol narxlari indeksi taqqoslash natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ko'rsatkichlar orasidagi maksimal chekinish yana avgust oyida (2019 yildagi 102,9 %ga qarshi 2018 yildagi 100,3 %), oktabr oyidagi farq esa bor yo'g'i 0,2 darajani tashkil etgan (2019 yil oktabrdagi 1,5 %ga qarshi 2018 yil oktabr oyidagi 1,3 %).

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 va 2019 yillarning birinchi o'n oyi davomidagi iste'mol narxlari indeksi natijalariga asosan, yanvar oyidan iyul oyiga qadar ko'rsatkichlar orasidagi tafovut avgust, sentabr va oktabr oylari o'rtasidagi farq kabi ahamiyatli emas edi. Shunday qilib, birinchi yetti oylik ko'rsatkichlar orasidagi diapazon yanvar oyida qayd etilib (102,7 %ga qarshi 101,5 %, yoki 1,2 darajada), avgust oyiga kelib farqlanish darajasi 2,0 darajani (106,2 %ga qarshi 108,2 %), sentabr oyida 1,6 darajagacha pasayib (109,7 %ga qarshi 108,1 %), oktabr oyida yana 1,9 darajagacha ko'tarilgan (111,4 %ga qarshi 109,5 %).

Quyida 2018 yilning yanvar oyidan umumiy iste'mol narxlari indeksining oylik dinamikasi yillik ko'rinishda aks ettirilgan:

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Izoh: shu va keyingi infografikalardagi rim raqamlarida oylar ko'rsatilgan

O'tgan yilning mos oyidagi ko'rsatkichga nisbatan joriy yilning oktabr oyida yillik umumiy iste'mol narxlari indeksi o'tgan oyga nisbatan 0,3 darajaga ko'tarilgan. Bunda, joriy yilning ilk yetti oyi davomida kuzatilgan nisbiy barqarorlikdan so'ng avgust oyida u sezilarli darajada ko'tarilib (113,5 %dan 116,5 %gacha), sentabr oyida esa biroz pasayish holati qayd etilgan (116,0 %gacha).

So'nggi o'tgan 22 oy davomidagi yillik umumiy iste'mol narxlari indeksida qayd etilgan yuqori ko'rsatkichlar o'zgarishsiz qolgan: eng minimal ko'rsatkich 2019 yilning yanvar oyida (113,0 %), maksimali esa 2018 yilning yanvar oyida qayd etilgan (120,1 %).

Yirik guruhlar bo'yicha narxlar o'zgarishiga ko'ra, 2019 yilning oktabr oyi natijalariga asosan, oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 2,8 %ga oshgan vaqtda nooziq-ovqat mahsulotlari bor yo'g'i 0,7 %ga, xizmatlar narxlari esa 0,4 %ga qimmatlashgan.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning oktabr oyida narxlarning ko'tarilishi borasidagi yetakchi pog'ona oziq-ovqat mahsulotlari guruhiga tegishli bo'lib, oy davomida narxlar o'rtacha 2,3 %ga qimmatlashgan. Bu vaqtda nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar narxlari o'sish sur'ati 0,5 %ni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovar va xizmatlar asosiy
guruhlarining iste'mol narxlari indeksi

o'tgan oyga nisbatan

2019 yil oktabr



Oziq-ovqat
mahsulotlari



Nooziq-ovqat
mahsulotlari



Xizmatlar

2018 yil oktabr



Oziq-ovqat
mahsulotlari



Nooziq-ovqat
mahsulotlari



Xizmatlar


O'tgan yilning oxiriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari 11,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 9,5 % va xizmatlar 14,2 %ga qimmatlashgan.

Taqqoslash uchun: 2017 yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 yilning oktabrida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 8,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 9,7 %, xizmatlar esa 10,7 %ga qimmatlashgan.

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan joriy yilning oktabr oyida (ya'ni, yillik davrda), oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 18,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 12,2 % va xizmatlar 19,5 %ga qimmatlashgan.

Taqqoslash uchun: 2017 yilning oktabr oyiga nisbatan o'tgan yilning oktabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar narxlari mos ravishda 18,6 %, 15,4 % va 12,1 %ga qimmatlashgan.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovar va xizmatlar asosiy guruhlarining iste'mol narxlari indeksi, %



2017 yilning dekabr oyiga nisbatan hisoblangan uzoq muddatli iste'mol narxlari indeksida oziq-ovqat mahsulotlari 128,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 123,1 %, xizmatlar 132,2 %ni tashkil etdi. Mazkur davr mobaynida umumiy ko'rsatkich 27,2 %ga o'sgan.



2017 yilning dekabr oyiga nisbatan
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
tovar va xizmatlar asosiy guruhlarining
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, o'sishi, %




○ oziq-ovqat mahsulotlari
 ○ nooziq-ovqat mahsulotlari
 ○ xizmatlar

Indekslarning o'rtacha oylik o'sish sur'ati hisob-kitobi natijalariga ko'ra, 2018 yilning yanvar oyidan 2019 yilning oktabr oyiga qadar oziq-ovqat mahsulotlari ko'rsatkichlari 1,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 0,9 %, xizmatlar 1,3 %ni tashkil etgan.

Har bir yirik guruhning salmoq vaznini inobatga olgan holda narxlar o'zgarishi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yilning oktabr oyida umumiy indeksning 1,5 foiz darajada (keyingi o'rinlarda f.d.) ko'tarilishida ta'sir bo'yicha yetakchi o'rinni 1,2 f.d. bilan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari band etgan.

Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi umumiy ko'rsatkichning o'sishiga qo'shimcha ravishda 0,2 f.d., xizmatlar tariflari o'sishi yana 0,1 f.d.da ta'sir ko'rsatgan.

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxleri indeksi o'sishidagi ta'siri, f.d. o'tgan oyga nisbatan




Taqqoslash uchun: 2018 yilning oktabr oyida umumiy iste'mol narxleri indeksi asosan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi ta'siri ostida shakllandi (1,0 f.d.). Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi umumiy ko'rsatkichga 0,2 f.d.da, xizmatlar 0,1 f.d.da ta'sir etgan.

Salmoq ko'rsatkichlari jihatidan asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlarining ko'tarilishi va ularning oy davomidagi umumiy iste'mol narxlari indeksidagi ulushiga ko'ra, 2019 yilning oktabr oyidagi umumiy ko'rsatkichda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 80,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 13,3 % va xizmatlar ulushi 6,7 %ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning oktabrida oy davomidagi umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishiga asosiy ta'sir etuvchi omil oziq-ovqat mahsulotlari tomon siljigan vaqtda (77,2 %), nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar ta'siri faqatgina 14,5 % va 8,3 %dan iborat bo'lgan.



Asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlari o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishidagi ta'sir ulushi, % o'tgan oyga nisbatan




○ oziq-ovqat mahsulotlari ○ nooziq-ovqat mahsulotlari ○ xizmatlar

Joriy yilning yanvar-oktabr oylaridagi umumiy iste'mol narxlari indeksining ko'tarilishi asosan tovarlar narxlarining ko'tarilishi bilan bog'liq (8,3 f.d.). Shulardan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi 5,0 f.d.ni, nooziq-ovqat mahsulotlari 3,3 f.d.ni tashkil etgan. Xizmatlar tariflarining oshishi natijasida o'n oy davomidagi umumiy ko'rsatkich 3,1 f.d.ga ko'tarilgan.

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlarini indeksidagi ta'siri, f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Joriy yilning iyul va avgust oyi natijalarini inobatga olmaganda, 2018 yilning dekabr oyiga nisbatan 2019 yilning yanvar-oktabr oylari davomida umumiy iste'mol narxlarini indeksining o'sishi barcha oylarda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi bilan bog'liq. Iyul oyida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining o'sishi hamda ularning ta'sirida tenglik kuzatilgan (2,0 f.d.dan). Avgust oyida har uch guruhning ta'siri maksimal darajada bir-biriga yaqinlashib, biroq oziq-ovqat mahsulotlari ta'siri biroz ustunlikka ega bo'ldi (3,0 f.d., 2,7 f.d., 2,5 f.d.). Oktabr oyida esa nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar ta'siri deyarli bir xil ko'rsatkichni tashkil etib (3,3 f.d. va 3,1 f.d.), oziq-ovqat mahsulotlarining mos ko'rsatkichiga nisbatan 1,7 f.d. hamda 1,9 f.d.da ortda qolgan.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 yilning oktabrida umumiy iste'mol narxlari indeksi oziq-ovqat mahsulotlari (3,7 f.d.), nooziq-ovqat mahsulotlari (3,4 f.d.) hamda xizmatlar (2,4 f.d.) narxlarining o'sishi ta'sirida tashkil topgan.

Shuningdek, 2019 va 2018 yillarning oktabridagi qisqa muddatli umumiy iste'mol narxlari indeksi, uning tuzilishi o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan taqqoslanayotgan davrlarda nisbatan o'xshashliklar mavjud.

Shunday qilib, 2019 yilning oktabr oyida oziq-ovqat mahsulotlarining ta'sir ulushi 43,9 % (2018 yilning oktabrida 38,7 %), nooziq-ovqat mahsulotlari 29,0 % (36,0 % ga qarshi), xizmatlar 27,1 % (25,3 %ga qarshi) tashkil etdi.




Asosiy guruhlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar narxlari o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishidagi ta'sir ulushi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

2018 yil oktabr

2019 yil oktabr



○ oziq-ovqat mahsulotlari ○ nooziq-ovqat mahsulotlari ○ xizmatlar

Yillik davrdagi (2019 yil oktabr 2018 yilning oktabriga nisbatan) umumiy iste'mol narxlari indeksi tahlili quyidagicha ko'rinishga ega bo'lgan:


Ushbu davrda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi umumiy ko'rsatkichning o'sishiga 7,9 f.d.da ta'sir etgan. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi natijasida umumiy ko'rsatkich qo'shimcha ravishda 4,2 f.d.ga o'sdi. Shuningdek, xizmatlar uning ortishiga yana 4.2 f.d.da ta'sir etdi.

Ulush ko'rsatkichlari bo'yicha oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar narxlarning o'sishi ta'sirining nisbati mos ravishda 48,2 %, 26,0 % va 25,8 %ni tashkil etdi.



2019 yilning oktabr oyida tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishidagi ta'siri

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



○ oziq-ovqat mahsulotlari

○ xizmatlar

○ nooziq-ovqat mahsulotlari

➔ barcha tovarlar va xizmatlar

Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Oktabrda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 2,8 %ga qimmatlashishi o'tgan oydagi mos ko'rsatkichga nisbatan 1,4 darajaga ko'p demakdir. Bu esa umumiy iste'mol narxlari indeksini 1,2 f.d.ga kattalashtirgan.


2019 yil boshidan mazkur guruh tovarlari narxlari o'rtacha 11,4 %ga qimmatlashib, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida narx indekslarining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,1 %ni tashkil etgan.

Yillik ko'rinishda (2019 yil oktabr 2018 yilning oktabriga nisbatan) oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 18,0 %ga qimmatlashgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi, %

2019 yil oktabr



2018 yil oktabr



Taqqoslash uchun: o'tgan oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 1,4 %ga oshganligi ushbu oydagi umumiy iste'mol narxlari indeksining ko'tarilishiga 0,6 f.d.da ta'sir etgan.

2019 yilning yanvar-sentabr oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha 8,4 %ga ko'tarilib, yillik davrda esa narxlarning o'sishi 17,5 %ni tashkil etgan.

2019 yil boshidan o'tgan davr mobaynida oziq-ovqat mahsulotlarining oylik qisqa muddatli narxlar dinamikasi boshqa guruhlariga nisbatan an'anaviy tarzda ko'proq sezilarli darajadagi tebranishlarga duch kelgan. Shunday qilib, oyma-oy narxlar ko'tarilishi diapazoni 2,8 %dan (yanvar) 0,5 %gachani (may) tashkil etgan bo'lsa, joriy yilning iyun va iyul oylarida mavsumiy omillar ta'sirida ushbu guruh mahsulotlari narxlari arzonlashgan. Avgust oyiga kelib esa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari yana ko'tarildi (oy davomida 2,3 %). Ushbu tendensiya sentabr (1,4 %) va oktabr (2,8 %) oylarida ham davom etdi.

Ma'lumot uchun: 2018 yil va 2019 yilning o'n oyi davomidagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi tahlillariga asosan, narxlarning eng yuqori darajada qimmatlashishi 2018 yilning yanvar oyida qayd etilgan (3,5 %). Narxlarning sezilarli darajada pasayishi esa o'sha yilning iyul oyida kuzatilgan (2,3 %).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari
indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 va 2019 yillarning yanvar-oktabr oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlaridagi narxlarning o'zgarishi dinamikasi o'xshash tendensiyaga ega bo'lgan: yanvar oyidan may oyiga qadar oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi asta-sekin o'sib borib (2019 yilda 107,9 %gacha va 2018 yilda 106,6 %gacha), keyinchalik mavsumiy omillar natijasida iyul oyiga qadar narxlarning

o'sish sur'ati sekinlashdi (2019 yilda 104,6 %gacha va 2018 yilda 102,3 %gacha). 2018 yilning dekabr oyiga nisbatan avgustdan to oktabr oyiga qadar mazkur guruh tovarlarining iste'mol narxlari indeksi yana ko'tarilish tomon ildamladi (2019 yil oktabrida 111,4 %gacha, 2018 yil oktabrida 108,5 %gacha). Buni quyida keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi shaklida ko'rish mumkin. Ta'kidlash joizki, taqqoslanayotgan davrlarning birinchi choragida grafik chiziqlari bir-biriga maksimal darajada yaqinlashib, keyingi oylarda ular orasidagi tafovut kengaya boshladi. Ushbu jarayon avgust oyiga kelib eng sezilarli darjaga yetib, farqlanish 4,3 darajani tashkil etdi (2018 yilda 102,6 % 2019 yildagi 106,9 % ga qarshi).



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari
indeksi dinamikasi, %**



2019 va 2018 yillarning yanvar oyidagi oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste'mol narxlari indeksi orasidagi tafovut maksimal darajani tashkil etgan bo'lishiga qaramay (mos ravishda 114,1 %ga qarshi 126,8 % yoki 12,7 daraja), sentabr-oktabr oylarida ushbu tafovut deyarli yo'qoldi (sentabr oyida bir xil ko'rsatkich, oktabr oyidagi farq 0,5 daraja).

Joriy yilning yanvar oyidan oktabr oyiga qadar oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol narxlari indeksining eng yuqori ko'rsatkichlariga kelsak, maksimal natijaga avgust oyida (119,7 %), minimaliga esa yanvar oyida (114,1 %) erishilgan. O'tgan yilning mos davridagi eng yuqori ko'rsatkich yanvar oyida (126,8 %), eng past natija esa avgust oyida qayd etilgan (115,4 %).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari
indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



○ 2018 y.

○ 2019 g.

2019 yilning oktabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining narxlari orasida non mahsulotlari (8,8 %) tuxum (7,3 %), go'sht, parranda go'shti va baliq, shuningdek, umumiy ovqatlanish muassasalari (1,7 %) narxlari oy davomida boshqalarga nisbatan sezilarli darajada oshdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan oy davomida narxlarning ko'tarilishi bo'yicha yetakchi o'rinlar tuxum (oy davomida 8,2 %) go'sht, parranda go'shti va baliq (2,7 %), shakar, choy va boshqa mahsulotlar (1,6 %), shuningdek umumiy ovqatlanish (1,8 %) narxlariga tegishlidir.


O'tgan yilning oktabr oyida narxlarning qimmatlashishi bo'yicha yetakchi pog'onalarni tuxum (15,1 %), meva-sabzavotlar (8,3 %) va sut mahsulotlari (1,8 %) band etgan.

Umumiy hisobda 2019 yilning o'tgan o'n oyi davomida go'sht, parranda go'shti va baliq (20,0 %), non mahsulotlari (18,6 %), sut mahsulotlari (14,0 %), shuningdek, umumiy ovqatlanish (18,4 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning yanvar-oktabr oylari davomida non mahsulotlari (22,2 %), go'sht, parranda go'shti va baliq (18,3 %), spirtli ichimliklar (13,1 %) narxlari boshqalarga nisbatan yuqori daraja ko'tarilgan.

Quyida 2019 yilning yanvar oyidan oktabr oyigacha non mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi taqdim etilgan:

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha non mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksini dinamikasi, %



Non mahsulotlari narxlarini joriy yilning oktabr oyida sezilarli darajada qimmatlashib (8,8 %), umumiy hisobda o'tgan o'n oy davomida narxlar 18,6 %ga ko'tarilgan. Shu bilan birga, guruch yangi hosilining yetilishi va mavsumiy narxlar pasayishi (oy davomida 6,1 %) ushbu guruh narxlarini barqarorlashtiruvchi omil sifatida xizmat qildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 14 oktabrdagi №866-son va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2019 yil 9 oktabrdagi "G'allachilik xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligi to'g'risida"gi Qarorlari asosida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini, jumladan, don yetishtirish va qayta ishlashni, shuningdek un narxini erkinlashtirish bo'yicha choratadbirlarning amalga oshirilishi kutilayotgan asosiy turdagi non mahsulotlari narxlarining ko'tarilishiga olib keldi (bug'doy uni, non, makaron mahsulotlari va boshqalar).

2019 yilning yanvar-oktabr oylari davomida go'sht mahsulotlari narxlari ko'tarilishining eng yuqori darajasi avgust oyida kuzatilgan bo'lib (6,3 %), oktabr oyida ushbu guruh mahsulotlari narxlarining oy davomidagi o'sish sur'ati 1,7 %ni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-oktabr oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha go'sht, parranda go'shti
va baliq mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeks dinamikasi, %
o'tgan oyga nisbatan**



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Yil boshidan buyon ushbu mahsulotlar narxlari o'rtacha 20,0 %ga ko'tarildi. Bu davrda mol go'shti (suyaksiz go'shtidan tashari) (23,6 %), qo'y go'shti (21,2 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi. Bundan tashqari, xom ashyo narxining ko'tarilishi va mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining oshishi go'shtni qayta ishlash mahsulotlari asosiy turlari (qiyma go'sht, kolbasa, dudlangan mahsulotlar va boshqalar) narxlarning oshishiga olib keldi.

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sut mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan




Yanvar va fevral oylarida narxlarning sezilarli o'sishdan so'ng (oy davomida 3,2 %) va martdan iyulgacha narxlarning mavsumiy pasayishidan so'ng (oy davomida 1,5 %dan 0,1 %gacha) sut va undan tayyorlangan mahsulotlar narxlari yana ko'tarila boshladi. Shuningdek, avgust va sentabr oylarida ushbu guruh mahsulotlari narxlari oyiga 1,0 %dan, oktabr oyida esa 1,3 %ga qimmatlashgan. Guruhning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori darajada sut, qatiq, chuchuk qatiq va o'xshash mahsulotlar (oy davomidagi narxlarning o'sish sur'ati 1,9 %), tvorog (1,6 %) va smetana (1,4 %) narxlari qimmatlashdi.

Umumiy hisobda 2019 yilning o'n oyi davomida sut mahsulotlari narxlari 14,0 %ga ko'tarildi. Mazkur davrda qatiq va chuchuk qatiq 18,9 %, sut 17,5 %, qaymoq 16,5 %, suzma 13,6 %, tvorog narxlari 13,4 %ga oshgan. Smetana, pishloq, yogurt, muzqaymoq, sutli konservalar narxlari 7,6 %dan 11,1 % oraliq'ida qimmatlashgan.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida tuxumning qisqa davrli narx indekslari dinamikasi sezilarli darajadagi tebranishlarga duch kelgan. Shunday qilib, narxlar yanvar oyida ko'tarilganidan so'ng (1,3 %), fevraldan iyulgacha narxlar oyma-oy 0,2 %dan (fevral) 3,5 %gacha (iyul) bo'lgan oraliqda pasayib, keyingi oylar davomida narxlar yana ko'tarila boshladi (avgustda 3,5 %, sentabrda 8,2 %, oktabrda 7,3 %).

**2019 yilning yanvar-oktabr oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tuxumning
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %**



Tuxum narxlarining bu kabi tebranishlari o'tgan yilning oxiriga nisbatan bo'lgan o'zgarishlarda xam o'z aksini topgan. 2019 yilning birinchi ikki oyi davomidagi tuxum narxlari 2018 yilning dekabr oyidagi narxlarga nisbatan yuqori bo'lgan. Mart oyidan avgust oyiga qadar vaziyat tubdan o'zgardi (narxlar dekabr oyidagiga nisbatan 0,1 % - 8,9 %gacha pasaygan).

Shuningdek, fevral-iyul oylari davomida tuxum narxlari (narxlarning oyma-oy pasayishi davri) 10,0 %ga arzonlashib, so'nggi uch oy davomida narxlar 20,2 %ga qimmatlashdi. Umumiy hisobda joriy yilning yanvar-oktabr oylarida tuxum narxlari 9,5 %ga ko'tarilgan.

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Yil davomida meva-sabzavot mahsulotlari narxlari dinamikasi an'anaviy ravishda ko'p o'zgarishlarga ega bo'lgan. Yil boshida narxlar o'sishining eng yuqori darajasi yanvarda qayd etilib (8,3 %), maksimal darajadagi pasayish iyulda (11,1 %) ro'yxatga olingan.

Joriy yilning oktabrida mevalar, sabzavotlar va kartoshka narxlari oy davomida deyarli o'zgarmadi (o'sish sur'ati bor yo'g'i 0,1 %ni tashkil etgan). Shu bilan birga, ushbu guruh tovarlari narxlarning o'zgarishi bir maromda kechmadi. Narxlarning qimmatlashishi kuzatilayotgan quyidagi mahsulotlarda qayd etilgan: pomidor (11,5 %), bodring (8,7 %), sarimsoq (7,1 %), tarvuz (3,5 %), uzum (3,4 %), olma (3,3 %), kartoshka (3,1 %), karam (2,5 %), qovun (1,9 %). Shu bilan bir qatorda, oy davomida piyoz 14,4 %, sabzi 9,1 %, sitrus mevalar 3,0 %, oshqovoq 2,6 % va nok narxlari 1,2 %ga arzonlashgan.

Umumiy hisobda joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida boshqa mahsulotlarga nisbatan sarimsoq (1,7 baravar) piyoz (1,5 baravar), sabzi (24,9 %), banan (18,7 %), sitrus mevalar (18,3 %) narxlari yuqori darajada qimmatlashdi. Ushbu davr mobaynida bodring va pomidor

(76,6 % va 64,7 %), shuningdek, tarvuz va qovun (28,4 % va 11,5 %) narxlari sezilarli darajada arzonlashgan.

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha shakar, choy va boshqa mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2019 yilning yanvar-oktabr oylari davomida shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari har oyda 0,1 %dan (iyul) 1,9 %gacha (oktabr) bo'lgan oraliqda ko'tarilgan. So'nggi oy davomida shakar 5,1%, qandolat mahsulotlari, shuningdek, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (tuz, ziravorlar, qaylalar va x.k.) o'rtacha 1,0%, qahva va choy narxlari 0,9%ga qimmatlashdi.

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan shakar 14,4 %ga, qandolat mahsulotlari 10,1 %ga, qahva va choy 3,8 %, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 4,8 %ga oshdi.

So'nggi uch oy davomida yog'-moy mahsulotlari narxlari oyiga 1,0 - 1,1 %dan qimmatlashgan. Oy davomida iste'mol yog'lari 2,3 %ga, margarin 1,8 %ga, sariyog', paxta yog'i, kungaboqar yog'i narxlari mos ravishda 1,4 %, 1,1 % va 0,6 %ga qimmatlashgan.

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yog` va moy mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %



O'tgan yilning oxiriga nisbatan 2019 yilning oktabr oyida sariyog' narxlarining o'sish sur'ati 14,3 %, margarin 11,1 %, iste'mol yog'lari 10,4 %ga, kungaboqar va paxta yog'i 4,6 % va 3,7 %ga qimmatlashgan.

Umumiy ovqatlanish muassasalaridagi narxlar har oyda 0,7 %dan 3,4 %gacha oraliqda ko'tarilgan. Oktabr oyida umumiy ovqatlanish muassasalaridagi narxlar oy davomida 1,7 %ga qimmatlashdi. 2018 yilning dekabr oyiga nisbatan ushbu guruh narxlarining o'sish sur'ati 18,4 %ni tashkil etdi.

Kuzatilayotgan boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari ichida alkogolsiz ichimliklar narxlari joriy yilning yanvar-oktabr oylarida 12,9 %ga, (jumladan oktabrda 1,0 %), spirtli ichimliklar 11,3 %ga (oktabrda 1,3 %) qimmatlashdi.


Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.2019 yildagi "Aksiz solig'iga tortiladigan ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5771-son va 26.09.2019

yildagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5837-son Farmonlari asosida joriy yilning 1 oktabridan mamlakatda ishlab chiqarilayotgan spirtli ichimlik mahsulotlariga nisbatan yangi aksiz soliqlari joriy qilindi.

Quyida yillik davr ko‘rinishida oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining iste‘mol narxlarini indeksi taqdim etilgan:

2019 yilning oktabr oyida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining iste‘mol narxlarini indeksi, %

o‘tgan yilning oktabr oyiga nisbatan




Yillik davrda non mahsulotlari narxlari boshqa mahsulotlar narxlariga nisbatan yuqori darajada ko'tarildi (24,7 %). Narxlarning qimmatlashish borasidagi keyingi o'rinlarni go'sht, parranda go'shti va baliq (23,4 %), tuxum (19,8 %), sut mahsulotlari (18,1 %), spirtli (14,0 %) va alkogolsiz ichimliklar (13,4 %), shakar choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (12,4 %) yog'-moy mahsulotlari (11,5 %) hamda mevalar, sabzavotlar va kartoshka (10,9 %) band etgan. O'tgan yilning oktabr oyiga nisbatan umumiy ovqatlanish 23,3 %ga qimmatlashgan.

Asosiy guruhlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy indeks o'sishiga ko'rsatgan ta'siri tahlili quyidagicha: joriy yilning oktabr oyida asosiy inflyatsion ta'sir non mahsulotlari guruhi tomonidan kuzatilgan (0,71 f.d.). Narxlarning ko'tarilishi bo'yicha keyingi o'rin go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlariga tegishli (0,18 f.d.). ta'sir darajasi bo'yicha yetakchi uchlikni so'nggi pog'onasini shakar choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari guruhi narxlari band etgan (0,10 f.d.).

2019 yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishidagi ta'siri, f.d.

o'tgan oyga nisbatan




- mevalar, sabzavotlar va kartoshka
- non mahsulotlari
- go'sht, parranda go'shti va baliq
- sut mahsulotlari
- tuxum
- yog` va moylar
- shakar, choy va boshqa mahsulotlar
- umumiy ovqatlanish
- boshqalar

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan joriy yilning oktabrida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari bo'yicha narxlarining qimmatlashishi va uning umumiy iste'mol narxlari indeksi tarkibida ta'siri bo'yicha yetakchilikni go'sht, parranda go'shti va baliq (2,13 f.d.). Shuningdek, non mahsulotlari (1,50 f.d.), shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (0,51 f.d.) hamda sut mahsulotlari (0,47 f.d.) narxlarining qimmatlashishi ham sezilarli darajadagi ta'sir kuchiga ega. Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining arzonlashishi umumiy ko'rsatkichning 0,43 f.d.da pasayishiga zamin yaratdi.

**2019 yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi
bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining
o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi
o'sishidagi ta'siri, f.d.**

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



- mevalar, sabzavotlar va kartoshka
- non mahsulotlari
- go'sht, parranda go'shti va baliq
- sut mahsulotlari
- tuxum
- yog` va moylar
- shakar, choy va boshqa mahsulotlar
- umumiy ovqatlanish
- boshqalar


O'tgan yilning mos oyiga nisbatan joriy yilning oktabr oyida umumiy ko'rsatkichning o'sishiga go'sht, parranda go'shti va baliq (2,49 f.d.) hamda non mahsulotlari (2,0 f.d.) narxlarining qimmatlashishi ulkan hissa qo'shgan.

Taqqoslash uchun: 2018 yilning yanvar-oktabrida nooziq-ovqat mahsulotlari iste'mol narxlari indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,9 %ni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
nooziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



2019 va 2018 yillarning o'n oyi davomidagi nooziq-ovqat mahsulotlarining qisqa muddatli oylik iste'mol narxlari indeksi dinamikalarini taqqoslash natijalari quyidagicha aks etgan.

O'zaro taqqoslanayotgan davrdagi ikki yil natijalari bo'yicha iste'mol narxlari indekslari orasidagi sezilarli tafovut yanvar (1,8 daraja, 2019 yildagi 100,5 %ga qarshi 2018 yildagi 102,3 %) hamda avgust oylarida qayd etilgan (102,1 %ga qarshi 100,3 %).

2018 yilda ushbu tovarlar guruhidagi iste'mol narxlari indeksining eng yuqori darajadagi ko'rsatkichi yanvar oyida qayd etilgan bo'lsa (102,3 %), avgust va sentabr oylarida minimal ko'rsatkich ro'yxatga olingan (100,3 %). 2019 yilda narx indekslarining maksimal darajasi avgust oyida shakllanib (102,1 %), minimal ko'rsatkich iyul oyi hissasiga to'g'ri keladi (100,4 %).

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan taqqoslanayotgan davrlaridagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari o'zgarishi dinamikasi narxlarning o'sishi bo'yicha nisbatan o'xshash tendensiyani takrorlaydi. Yanvardan oktabrgacha kuzatilgan ko'rsatkichlar orasidagi eng yuqori tafovut iyul oyiga to'g'ri keladi (2,8 daraja). So'nggi oylarda narx ko'rsatkichlari bir-biriga o'zaro yaqinlashib, oktabr oyida bu ko'rsatkichlar orasidagi farq minimum darajaga yetgan (0,2 daraja).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
nooziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Shuningdek, yillik natijalarga asosan, nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi tendensiyalari umumiy ko'rsatkichlari orasida yaqinlashuv qayd etildi. Shunday qilib, agar sakkiz oy davomida oraliq 6,6 - 9,1 darajani tashkil etgan bo'lsa, sentabrda bu ko'rsatkich 4,5 darajagacha (116,6 % dan 112,1 %ga) qisqarib, oktabrda esa 3,2 darajani tashkil etgan (115,4 %dan 112,2 %ga).



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
nooziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



2019 yilning oktabrida nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarida orasida tamaki mahsulotlari (5,7%), shaxsiy transport (2,3 %), gilam va gilam mahsulotlari (1,4 %), yuvish va tozalash vositalari (1,2 %),

shaxsiy gigiyena tovarlari (0,9 %), qurilish materiallari va maishiy to'qimachilik mahsulotlari (0,8 %), kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,6 %) narxlari oy davomida sezilarli darajada qimmatlashdi. Oktabr oyida avtomobillar uchun gaz yoqilg'isi bozorida shakllangan holatdan kelib chiqib propan va metan narxlarining arzonlashganligi qayd etilgan (5,3 % va 0,3 %).

**2019 yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining
iste'mol narxlari indeksi, %**

Kiyim-kechak		Oyoq kiyim		Mato va eshilgan iplar	
	100,6 108,2		100,6 108,3		100,2 110,0
Maishiy to'qimachilik mahsulotlari		Madaniy mollar		Qurilish materiallari	
	100,8 108,7		100,2 112,0		100,8 105,4
Gilam va gilam mahsulotlari		Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari		Yuvish va tozalash vositalari	
	101,4 109,1		100,4 112,5		101,2 113,9
Avtomobillar uchun yoqilg'i		Kitoblar, gazetalar va jurnallar		Shaxsiy gigiyena mahsulotlari	
	99,3 121,6		100,3 120,7		100,9 110,7
 o'tgan oyga nisbatan		 o'tgan yilning dekabriga nisbatan			

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.2019 yildagi "Aksiz solig'iga tortiladigan ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5771-son va 26.09.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5837-son farmonlari asosida joriy yilning 1 oktabridan mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tamaki va boshqa mahsulotlarga nisbatan yangi aksiz soliqlari joriy qilindi.

Endi sigaretlarga (filtrli yoki filtrsiz), shuningdek, papiroslarning aksiz solig'i ishlab chiqaruvchi tomonidan sotilgan tovarlar qiymatining va qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari aksiz solig'i stavkasi belgilandi (141 500 so'm / 1000 dona+9 %)

Yil boshidan avtomobillar uchun yoqilg'i (21,6 %), kitoblar, gazetalar va jurnallar (20,7 %), yuvish va tozalash vositalari (13,9 %), zargarlik buyumlari (13,9 %), asosiy maishiy mahsulotlar va elektr jihozlari (12,5 %), madaniy mollar (12,0 %) narxlari birmuncha sezilarli darajada qimmatlashdi.

Ushbu davr mobaynida tamaki mahsulotlari 12,0 %, aloqa vositalari 11,9 %, shaxsiy gigiena vositalari 10,7 %, matolar va eshilgan iplar, maishiy yoqilg'i (ko'mir) 10,0 %, gilam va gilam mahsulotlari 9,1 %, maishiy to'qimachilik mahsulotlari 8,7 %, oyoq kiyim 8,3 %, kiyim-kechak narxlari 8,2 %ga oshgan.

2019 yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarini narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlari indeksi o'sishidagi ta'siri, f.d.


o'tgan oyga nisbatan



Umumiy iste'mol narxlari indeksi hisoblash uchun tovarlar va xizmatlar to'plamida nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining salmoq vaznini hisobga olgan holda oy davomidagi narxlarning o'sishi va umumiy ko'rsatkichga sezilarli darajadagi ta'siri bo'yicha yetakchilik kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,06 f.d. atrofida) mahsulotlariga taalluqlidir. Keyingi o'rinlarni qurilish materiallari (0,04 f.d.), dori-darmonlar (0,03 f.d.), tamaki mahsulotlari, shuningdek, yuvish va tozalash vositalari (0,02 f.d.dan) band etgan. Avtomobillar uchun yoqilg'i narxlarining

arzonlashishi oy davomidagi umumiy ko'rsatkichning 0,02 f.d.da pasayishiga sabab bo'ldi.

2019 yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlarini indeks o'sishidagi ta'siri, f.d.



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan umumiy iste'mol narxlarini indeks o'sishiga kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,83 f.d.), shuningdek, avtomobillar uchun yoqilg'i hamda maishiy yonilg'i (0,62 f.d.) narxlarining qimmatlashishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Umumiy ko'rsatkichning o'sishiga qurilish materiallari narxlarining qimmatlashishi 0,23 f.d.da, asosiy maishiy buyumlar va elektr jihozlari 0,22 f.d.da, yuvish va tozalash vositalari 0,20 f.d.da, shaxsiy gigiyena tovarlari 0,18 f.d.da, mato va eshilgan iplar va maishiy to'qimachilik mahsulotlari 0,17 f.d.da, dori-darmonlar 0,16 f.d.da, madaniy mollar va aloqa vositalari 0,14 f.d.da, ta'sir etdi.

2019 yilning oktabr oyi uchun yillik davrda nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining iste'mol narxlaridagi o'zgarishlar quyidagi ko'rinishda taqdim etilgan:

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi
nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

Nomi	2019 yil oktabr 2018 yilning oktabriga nisbatan
Kiyim-kechak	111,5
Oyoq kiyim	111,0
Gazlama va eshilgan iplar	113,5
Qurilish materiallari	105,2
Mebel	110,3
Gilam va gilam mahsulotlari	112,6
Maishiy to'qimachilik mahsulotlari	112,3
Asosiy maishiy tovarlar va elektr jihozlar	114,6
Oshxona anjomlari	110,6
Yuvish va tozalash vositalari	117,4
Avtomobillar uchun yoqilg'i	131,4
Madaniy mollar	113,0
Aloqa vositalari	116,0
Kitob, gazeta va jurnallar	121,1
Shaxsiy gigiyena vositalari	113,9
Tamaki mahsulotlari	117,4
Qishloq xo'jaligi anjomlari	109,6

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan 2019 yilning okyabr oyida avtomobillar uchun yoqilg'i (31,4 %), bosma nashr mahsulotlari (21,1 %), tamaki mahsulotlari, yuvish va tozalash vositalari (17,4 %), aloqa vositalari (16,0 %) narxlarining sezilarli ravishda ko'tarilishi kuzatilgan.

Umumiy iste'mol narxlari indeksi hisoblash uchun tovarlar va xizmatlar to'plamida nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining salmoq vaznini hisobga olgan holda yillik davrda umumiy ko'rsatkichga avtomobillar uchun yoqilg'i (0,80 f.d.), kiyim-kechak (0,79 f.d.), oyoq kiyim (0,35 f.d.), asosiy maishiy buyumlar va elektr jihozlari (0,26 f.d.), yuvish va tozalash vositalari (0,25 f.d.), shaxsiy gigiyena vositalari va dori darmonlar (0,23 f.d.dan), qurilish materiallari (0,22 f.d.) narxlarining oshganligi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

Xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi

Joriy yilning oktabr oyida aholiga pullik xizmatlar tariflarining o'sishi 0,4 %ni tashkil etib, iste'mol narxlari oylik indeksining 0,1 f.d.ga ko'tarilishiga olib keldi.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
aholi uchun pullik xizmatlarning
iste'mol narxlari indeksi, %

2019 yil oktabr



2018 yil oktabr




2019 yil boshidan ushbu sohadagi tariflar o'rtacha 14,2 %ga, narxlarning o'rtacha oylik o'sish sur'ati esa 1,3 %ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan taqqoslaganda tariflarning o'sish sur'ati 19,5 %ni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %




2018 y.

2019 y.

2019 va 2018 yillarning dastlabki o'n oyi davomida tariflarning o'zgarishi dinamikasi barqaror o'sish sur'ati bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida tariflarning maksimal oylik o'sishi avgust oyida (5,6 %), 2018 yilning mos davrida esa aprel (2,7 %) va may oylarida kuzatilib (2,1 %), bu esa o'z navbatida asosiy turdagi uy-joy kommunal xizmatlarining oshirilgan tariflarini amaliyotga joriy qilinishi bilan bog'liq.

2019 yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun asosiy turdagi pullik xizmatlarning iste'mol narxlarini indeks, %



Joriy yilning oktabr oyidagi xizmatlar tariflari o'rtacha 0,4 %ga ko'tarilib, guruhning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori darajada sport xizmatlari (2,2 %), maishiy xizmatlar (1,2 %), tibbiy xizmatlar (0,8 %), dam olish va yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (0,6 %) narxlarini qimmatlashgan. Boshqa turdagi xizmatlar tariflarning o'sish sur'ati guruhning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori darajada ko'tarilmadi. Joriy yilning oktabr oyida madaniyat muassasalari hamda uy-joy kommunal xizmatlari tariflari o'tgan oyidagi narxlar darajasida saqlanib qolgan.

2019 yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
aholi uchun asosiy turdagi pullik xizmatlarning
iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



O'tgan yilning oxiriga nisbatan 2019 yilning oktabr oyida aholi uchun pullik xizmatlar tariflari o'zgarishiga asosan, asosiy guruhlar orasida narxlarning sezilarli darajada qimmatlashashi ta'lim (21,5 %), davlat budjetidan moliyalashtiriluvchi maktabgacha ta'lim tizimi (20,5 %), uy-joy kommunal xizmatlar (17,7 %), maishiy turdagi xizmatlar (16,3 %), sport xizmatlar (12,7 %) sohasida kuzatilgan. Ushbu davr mobaynida dam olish xizmatlari 12,2 %, tibbiy va yo'lovchi tashish transporti xizmatlari 10,7 %, madaniyat muassasalari xizmatlar 6,2 % va aloqa xizmatlari narxlari 5,0 %ga ko'tarilgan.

2019 yilning oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun alohida turdagi pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %

Xizmatlar nomi	2018 yilning oktabriga nisbatan
Maishiy xizmatlar	119,5
Uy-joy kommunal xizmatlari	129,7
Yo'lovchi transporti xizmatlari	114,8
Aloqa xizmatlari	105,4
Madaniyat muassasalari xizmatlari	110,3
Sport xizmatlari	114,7
Dam olish xizmatlari	113,1
Tibbiy xizmatlar	114,3
Ta'lim xizmatlari	122,6
Maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari	120,5


Yillik hisobda kuzatilayotgan aholi uchun pullik xizmat ko'rsatish sohasida narxlari sezilarli darajada oshgan yetakchi uchlikni uy-joy kommunal xo'jaligi (29,7 %), ta'lim (22,6 %), maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari narxlari (20,5 %) band etgan.

Shuningdek, o'tgan yilning oktabriga nisbatan maishiy xizmatlar (19,5 %), yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (14,8 %), sport (14,7 %), tibbiy xizmatlar (14,3 %), dam olish xizmatlari (13,1 %), madaniyat muassasalari hamda sport xizmatlari (mos ravishda 10,3 % va 5,4 %ga) narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan.

Joriy yilning oktabr oyida maishiy xizmatlarning oylik narxlar o'sishi umumiy iste'mol narxlari indeksining oy davomidagi o'sish sur'atiga 0,04 f.d., yo'lovchi tashish transporti va aloqa xizmatlari 0,03 f.d., tibbiy xizmatlar 0,02 f.d.da ta'sir ko'rsatgan. Boshqa turdagi xizmatlar narxlarining o'sishi va uning umumiy ta'siri 0,01 f.d.ni tashkil etgan.

2019 yilning oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxleri indeksi o'sishidagi ta'siri, f.d.


o'tgan oyga nisbatan



2018 yilning dekabr oyiga nisbatan umumiy iste'mol narxleri indeksiga ta'siri jihatidan yetakchilikni uy-joy kommunal xizmatlari narxleri davom ettirmoqda (1,07 f.d.).

2019 yilning oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxleri indeksi o'sishidagi ta'siri, f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Maishiy turdagi xizmatlar tariflarining ko'tarilishi qo'shimcha ravishda umumiy ko'rsatkichning o'sishiga 0,58 f.d., yo'lovchi tashish transporti va aloqa xizmatlari 0,48 f.d., ta'lim xizmatlari 0,39 f.d., tibbiy xizmatlar 0,22 f.d., maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari 0,21 f.d.da ta'sir etgan.

Narxlar statistikasi boshqarmasi

71-230-80-36

71-230-81-74